

TAKROR VA UNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Mamadaminova Durдона Muxamaddazim qizi

FarDU Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **Saminov Abdumalik Inomjonovich**

Tilshunoslik kafedrası dotsenti v.b,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqola takror va uning lingvopoetik xususiyatlari, ularning badiiy estetik vosita ekanligi Cho'lpon she'rlari misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: takror, lingvopoetika, bo'lakli takror, birikmali takror, predikativ takror, , anafora, epifora, mukarrar, takrir, tardi aks, emotsional-expressivlik.

Takror – asosan, badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan takrorlash orqali muallif o'z fikrining ta'sir kuchini oshirishga, his - tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi. Takror badiiy adabivotda keng tarqalgan, eng qadimiy stilistik vosita turi bo'lib, so'z ustalari undan tasvir etilavotgan obyektga bo'lgan subyektiv munosabatlarni ifodalash, unga baho berish, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tortish maqsadida foydalanganlar.¹

Takror nutqda yoki matnda bir yoki bir nechta so'z, iboralarni bir necha marta qaytarish orqali muayyan ma'nolarni chuqurlashtirish, ta'kidlab ko'rsatish, hissiy ta'sir o'tkazish, fikrni konkretlashtirish maqsadida ishlatiladi. Takrorning lingvistik va poetik xususiyatlari tilning estetik potensialini ochib berishda, biror g'oya yoki his-tuyg'uni kuchaytirishda katta rol o'ynaydi. Takrorning vazifalaridan yana biri muallif nutqini ta'sirchan qilish, aytmoqchi bo'lgan fikrini ta'kidlab ko'rsatish orqali o'quvchini ishonitirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat.

¹ Mamajonov A, Roziqova G. Sintaktik stilistika – Farg'ona, 2018. – B.6

Takror she'r va adabiy asarlarning ritmini hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Takrorlangan so'z yoki iboralar o'quvchi yoki tinglovchining eshitish sezgilarini uyg'otib, musiqiylik va ohangdorlikni ta'minlaydi.

Tilda takrorlar ma'lum bir sistemani tashkil etadi: fonetik takror, leksik-morfologik takror, sintaktik takror. Takroring yuqorida belgilangan turlari o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallari, badiiy va publitsistik asarlar tilida juda keng qo'llaniladi. Bu holat sintaktik-stilistik figuralar tahlili uchun boy material hisoblanadi hamda takror bo'yicha alohida va muhim tekshirishlar olib borish, tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatini tug'diradi.

Takror hodisasi til stilistik vositalarining boyish manbalardan biridir. Takror poetik va publitsistik asarlar tilida eng ko'p qo'llanadigan sintaktik-stilistik figura hisoblanadi. Eng mahsuldor ta'sirchan takror ko'rinishi – bu sintaktik takror usulidir. So'z birikmalari, gap bo'laklari va gap turlarining aynan takrorlanishi natijasida sintaktik takror hodisasi yuzaga chiqadi. Sintaktik takror semantik - grammatik-stilistik kategoriya sifatida keng ma'nodagi hodisa bo'lib, bu tor - yakka ma'nodagi takror hodisalarining quyidagi turlarini o'z ichiga oladi:

1. Gap bo'laklari takrori – bo'lakli takror.
2. So'z birikmalari takrori - birikmali takror.
3. Gap takrori - predikativ takror.

She'riyatda takror nutqning estetik jihatdan ta'sirini kuchavtirishga yordam beradi. Biroq bo'lak yoki bir butun gapning takrorlanishi natijasida chuqur hayajon, ko'tarinkilik, davomiylik, qat'iylik kabi ma'no ottenkalari ta'kidlanadi. Takror adabiyotda turli shakllarda ishlatiladi va badiiy san'atlarning muhim vositasiga aylangan. Takrorning badiiy ahamiyati juda katta, chunki u nafaqat estetik jihatdan go'zallik yaratadi, balki asarning maqsad va mazmunini yanada aniqlashtiradi. Tilning ta'sirchanligi masalasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi muhim va asosiy masalalardan biri bo'lib, uni emotsional-ekspressiv vositalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Badiiy asar tilida ta'sirchanlik keng tushuncha hisoblanadi. Asardagi ta'sirchanlikni oshirishda takrorlarning o'rni beqiyosdir.

Takrorlar she'r tasirchanligini ta'minlaydi. Bunday tasirchanlik shoir va yozuvchi she'rlarida anafora, mukarrar, takrir, epifora, tardi aks takrorlari vositasida namoyon bo'lgan. Biz quyida shularning ba'zilariga Cho'lpon she'riyati misolida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Anafora (yun. anaphora – oldinga, yuqoriga chiqish) – so'z yoki so'zlar guruhining misra yoki band boshida takrorlanishi, so'z takrorining xususiy ko'rinishi²:

Nega jimsen, nega javob bermaysen,
Nega ko'zing qizarindi, yoshlandi?
Nega yuzing so'lgan kabi yumshardi?
Nega senda bir talvasa boshlandi?

(Cho'lpon. Yorug' yulduzga)

Keltirilgan parchada nega so'zi misra boshida takrorlanishi orqali anaforani yuzaga chiqargan. Bu misrada tavsif etilayotgan holat mazmunan kuchaytirib boriladi. Anafora esa ta'kidlash orqali ma'noni yanada kuchaytiradi.

Epifora (yun. epiphora – qo'shimcha) – takrorning xususiy ko'rinishlaridan biri, she'rdagi bir necha misra oxirida bitta so'z yoki so'z birikmasining takrorlanishi³:

Kulgan boshqalardir, yig'lag'an menmen,
O'ynag'an boshqalar, ingrag'an menmen.

(Cho'lpon. Men va boshqalar)

Ushbu parchada qofiyadan keyin menmen so'zining takrorlanishi epifora bo'lib, u joylashish o'rni jihatidan radifga o'xshaydi. Biroq radif butun she'r davomida takrorlansa, bu she'rda takror ba'zi misralardagina kuzatiladi. Shunga ko'ra, uni radif emas, epifora hisoblash to'g'riroqdir.

Mukarrar (ar. takrorlangan) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bayt misralarida juft yoki takroriy so'zlarni qo'llash:

Sho'x-sho'x oqib, yuragida yashirincha

² Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.26

³ Quronov D. Ko'rsatilgan manba. – B.369

Tarixlarni, asrlarni qarg'amish.
Bilarmikin, o'z umrida ul qancha
Yaxshi erlar yod etmish-da, alqamish?

(Cho'lpon. Zarafshon)

Baytda sho'x-sho'x takroriy so'zlarining qo'llangani mukarrar san'atini yuzaga keltirgan. Bu o'rinda takroriy so'zning qo'llanilishi nutqning ta'sirchanligini yanada oshirgan.

Takrir (ar. takror) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bir so'zni baytning turli o'rinlarida takrorlash. Shoir baytda biror so'zni ikki yoki uch marotaba qo'llasa takrir san'ati sodir bo'ladi.

O'ynat, ey, po'rtana, to'xtatma, quvvat ol.
Chog' kelgach, erinib yotma, uxlama,
bo'lmasin yo'qlama.
Ko'p ezgan dushmandan,
past jondan
O'chni ol, o'chni ol, o'ch ol!..

(Cho'lpon. Po'rtana)

Baytda takrir ma'noni ta'kidlab kuchaytiradi va shunga mos ohang bilan o'qishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, takror gapirayotgan nutqimizda emotsional-expressivlikni oshirib berishda va qolaversa, so'zlarning qayta takrorlanib kelishi natijasida o'quvchilarda tushunchalar chuqurroq yetib borishni ta'minlaydi. Ko'rinadiki, takror ham lingvopoetikada muhim o'rin egallaydi va asar g'oyasini ochib berishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Har bir takroriy qo'llangan so'z o'zining yakka holda takrorlanmasdan qo'llanishiga nisbatan yangi ma'no ottenkalariga ega bo'ladi va shu asosida uning semantik doirasi ham yana kengayadi, hissiy-ta'siriy bo'yoqdorlik yanada ortadi. Bu esa takrorning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamajonov A. Roziqova G. Sintaktik stilistika. – Farg'ona, 2018.
2. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
3. Rahmonov V. She'r san'atlari. – Toshkent: Sharq, 2020.
4. Abdulhamid Cho'lpon. Binafsha. – Toshkent: Adabiyot, 2021.